



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI
PARADİGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATİSYASI

ISSN: 2181-1776

Ishmatova Dildora Sirojiddinovna

Paxtachi tuman 19-maktab o'qituvchisi

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INKLÝUZIV TA'LIMNI JORIY
ETISHNING AHAMIYATI**

Annatasiya. Ushbu maqolada inkyuziv ta'lismi mohiyati va umumta'lismi maktablarda joriy etishning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada boshlang'ich ta'lismi o'qituvchilari alohida ta'lismi ehtiyojlariga ega o'quvchilarga ta'lismi- tarbiya berishning psihologik va pedagogic jihatlarini rivojlantirish yo'llari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Inkluziya, inkyuziv ta'lismi, qobiliyat, individual, psixologik kompetentsiya, pedagogik yondoshuv.

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevar qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lismi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ta'lismi sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolar ta'lismi-tarbiyasini ham qamrab olgan.

Imkoniyati cheklangan yoki maxsus ehtiyojli bolalar ta'lismi tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Inkyuziv ta'lismi imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lismi tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lismi imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lismi muasasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Inkyuziv ta'lismi butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lismi maktablarining katta bo'limgan qismlari



sifatida faoliyat yuritadi. Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimda o'qitimish ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda.

Qanday ta'lim inklyuziv deb ataladi? Inklyuziv ta'lim fr.inklyuziv - shu jumladan - alohida ehtiyojli bolalarning ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydigan barcha bolalarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan hamma uchun ta'limning mavjudligini nazarda tutuvchi umumiyligi ta'limni rivojlantirish jarayoni. YuNESKO inklyuziyani "talabalar xilma-xilligini qamrab oluvchi va individual farqlarni muammo sifatida emas, balki jarayonni boyitish imkoniyati sifatida qabul qiluvchi dinamik yondashuv" deb biladi.

Inklyuzivlik haqidagi noto'g'ri tushunchalar: mактабда о'qishning o'zi kifoya, degan tushuncha suzmaydigan odamni suvga tashlash mumkinligi haqidagi tushuncha Maqsadlarga emas, balki harakatlarga e'tibor qaratish, jim o'tirish ishtirok etishning oddiy muqobilidir.

Inklyuzivlik mafkurasi Inklyuzivlik ijtimoiy tushunchadir. Ta'limga inklyuziya - bu jamiyatga qo'shilish bosqichidir. Inklyuziv jamiyat g'oyasi jamiyatni va uning institutlarini shu jamiyatning barcha a'zolarining qabul qilinishi va ishtirok etishiga yordam beradigan tarzda o'zgartirishdir. Inklyuzivlik nafaqat alohida ta'limga muhtoj bolalar, balki sog'lom bolalar uchun ham rivojlangan, insonparvar va samarali ta'lim tizimi sifatida e'tirof etilgan.

Ta'limga inklyuziya jamiyatga qo'shilish sharti sifatida "Aloida ehtiyojli bolalarni o'qitish mamlakat oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Bu har bir kishi o'z harakatlarining ishtiroki va dolzarbligini his qilishi mumkin bo'lgan chinakam inklyuziv jamiyatni yaratish uchun zarur shartdir. Biz har bir bolaga, ularning ehtiyojlari yoki boshqa sharoitlaridan qat'i nazar, o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, jamiyatga hissa qo'shish va uning to'liq a'zosi bo'lismi imkoniyatini berishga majburmiz." Devid Blanket

Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi ularni o'qish va yozishga o'rgatish muammolarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko'mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soha xodimlari hamda nogron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi masuliyatli ishlar jumlasiga kiradi.

Maxsus yordamga muhtoj bolalar asosiy muamolarini ular o'zlarini yashab turgan muxitdan, oiladan uzoqda ta'lim tarbiya berish bilan hal qilib bo'lmaydi. Jamiyat o'z a'zolariga javobgarlikni o'z bo'yniga olmas ekan, cheklab qo'yilgan huquq va imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan ijtimoiy integratsiyaga erishish qiyin. Maxsus ehtiyojli bolalarni ta'lim tarbiyasida



tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalg qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko'rib chiqish ya'ni mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

Alovida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalg qilishning ikki asosiy omili bor:

Birinchidan, alovida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalananadilar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim to`g`risida"gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O`zbekiston. 1997.
2. Aminova V.Yu. Integrirovannoye obrazovaniye dlya detey s osobymi nujdamii v doshkolnykh i shkolnykh uchrejdeniyakh massovogo tipa (Metodicheskiye rekomendatsii) MNO RTsO Resursno'y sentr YuNESKO Tashkent 2002)
3. Imkoniyati chyeklangan bolalar va o`smirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish to`g`risida muvaqqat NIZOM. O`RXTV T., 19 syentyabr, 2005.
4. "Maktablar hamma uchun"- "Bolalarni qutqaring jamg'armasi" -2002 yil